

ISSN 2181-7324



O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR
YO'NALISHI**

ВЕСТНИК НУУЗ

АСТА НУУЗ



ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ

ВЕСТНИК НУУз АСТА NUUz

МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ
УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

**ЖУРНАЛ
1997
ЙИЛДАН
ЧИҚА
БОШЛАГАН**

**2022
1/10/1**

**Ижтимоий-
гуманитар
фанлар
туркуми**

Бош муҳаррир:

И.У.МАДЖИДОВ – т.ф.д., профессор.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Р.Х.ШИРИНОВА – ф.ф.д., профессор

Таҳрир хайъати:

Сагдуллаев А.С. – т.ф.д., проф.

Аширов А.А. – т.ф.д., проф.

Баллиева Р. – т.ф.д., проф.

Маликов А.М. – т.ф.д., проф.

Юсупова Д.Ю. – т.ф.д., проф.

Муртазаева Р.Х. – т.ф.д., проф.

Мўминов А.Г. – с.ф.д., проф.

Нишоновна О.Ж. – ф.ф.д., проф.

Абдуллаева Н.Б. – ф.ф.д., проф.

Мадаева Ш.О. – ф.ф.д., проф.

Туйчиев Б.Т. – ф.ф.д., проф.

Утамурадов А. – ф.ф.н., проф.

Ахмедов Х.А. – с.ф.д.

Мирзаахмедов К.М. – с.ф.ф.д., PhD.

Мухаммедова Д.Г. – псих.ф.д.

Болтабоев Х. – фил.ф.д., проф.

Рахмонов Н.А. – фил.ф.д., проф.

Жабборов Н.А. – фил.ф.д., проф.

Сиддикова И.А. – фил.ф.д., проф.

Садуллаева Н.А. – фил.ф.д., доц.

Арустамян Я.Ю. – фил.ф.д., доц.

Пардаев З.А. – фил.ф.ф.д., PhD.

Масъул котиб: **З. МАЖИД**

ТОШКЕНТ – 2022

МУНДАРИЖА

Тарих

Алимардонов О. Роль женщин в развитии народной дипломатии	4
Ахмадова З. Абдурауф Фитрат Бухоро жадидчилигининг ёркин намоёндаси	8
Ктайбеков А. Социально-экономическое развитие республики Каракалпакстан (2017-2022)	11
Мухаммадиев Р. Усмон Юсупов ва Никита Хрущев муносабатлари.....	15
Таммиксаар Э. Таави П., Саидбобоев З. Александр Фон Миддендорфнинг Фарғона водийсига саёҳати	19
Ўринбоев Д. Ўзбекистоннинг мустақил тараққиёт стратегияси – замонавий стратегемалар назариясининг миллий даражадаги ифодаси	23

Фалсафа. Педагогика. Психология. Методика. Социология. Сиёсий фанлар. Илмшунослик

Абдижамилова М. Ўқиш саводхонлигини шакллантиришнинг назарий ва методик асослари	27
Abduvaliyev O. Mahallada ijtimoiy muammolarni bartaraf etish shart-sharoitlari	30
Абдужабборов З. Психологические основы интенсификации обучения иностранному языку в начальном этапе	33
Абдуназаров Л. Диний адабиётлардан экологик маданиятни шакллантириш воситаси сифатида фойдаланишнинг аҳамияти	36
Абушаев А. Современные методики преподавания английского языка	39
Агзамходжаева Ш. Методы философской компаративистики и сравнительного анализа в изучении наследия Алишера Навои	42
Akobirova S. Foreign language training in the credit-module system	46
Алиева К. Хорижий мутахассислар тадқиқотларида раҳбар шахсининг ижтимоий психологик хусусиятларини замонавий ҳолати.....	49
Allamova Sh. Aralash ta'limning institutsional, tashkiliy-texnologik va pedagogik aspektlari.....	52
Аллаярова Н. Гендер тенглик тафаккурини ривожлантиришнинг педагогик ва психологик моҳиятли жиҳатлари.....	56
Аминова Н. Фрэнсис Бэкон илмий меросининг тарихий-фалсафий асослари.....	59
Араббоев Х. Ўқувчиларининг жисмоний сифатларини тарбиялашнинг педагогик-психологик хусусиятлари.....	62
Ахмеджонов Д., Умиров Б. Амалий дастурлар пакетларини шахсга йўналтириш орқали ўқитишнинг илмий-методик таъминотини такомиллаштириш масалалари.....	65
Ашурова О. Бўлажак мактабгача таълим мутахассисларининг экоэстетик маданиятини ривожлантиришнинг ижтимоий-тарихий анъаналари, гендер хусусиятлари	69
Bozorova I. Solution of economic issues using modern act.....	72
Боқиев Х. Малака ошириш жараёнида профессор-ўқитувчиларни илмий методик тайёрларлигини бошқариш фаолиятини такомиллаштириш	75
Bo'riyev O., Abdurasulova S. Korruptsiyaga qarshi kurashish – inson qadrini yuksaltirish mezonlari	79
G'ovsidinov M. "Alisher Navoiyning dunyoqarashi shakllanishida Abdurahmon Jomiyning roli Y.E.Bertels talqinida	82
Довранова О. Оила барқарорлигини таъминлашда эр-хотин муносабатларининг ўрни	85
Daminova B. Elektron ta'lim muhitida pedagogik faoliyatni tashkil etish	88
Джамиев Б. Кўппартиявийлик тизими жамиятни демократлаштириш омили сифатида	91
Djurayev E. Bolalar o'rtasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirishning dolzarb masalalari	95
Жабборов М. Талабалар академик ўзлаштиришига таъсир этувчи омиллар	98
Джалилов Х. Темир йўл муҳандислиги йўналиш талабаларининг касбий маданиятини ривожлантиришнинг педагогик шарт-шароитлари	101
Jansaitova J. Boshlang'ich sinflarda psixologik diagnostika usullari	104
Замилова Р. Вопросы формирования исторического мышления будущих учителей при изучении исторических наук	107
Зокиров М. Ўқувчиларнинг ички дунёсига кириб боришда педагогик мулоқотнинг ўрни	111
Исмоилов Ш. Ўсмир ёшдаги ўғил болаларга таълим-тарбия беришнинг ўзига хос хусусиятлари ва педагогик асослари	114
Yo'ldosheva D. Bo'lajak o'qituvchilar kreativ kompetentligining o'ziga xos xususiyatlari va uni rivojlantirishga oid tajriba-sinov ishlari tahlili	117
Касимова Э. Янги Ўзбекистонда миллий ва диний қадриятлар асосида маънавий янгиланиш ижтимоий тараққиётнинг зарур омили	121
Мамазова З. Талабалар ўртасида китобхонлик маданиятини шакллантириш масалалари.....	125
Махмудова Д., Эшқораев Қ. Интегратив таълим ёрдамида ўқув машғулотларини ташкил этиш.....	127
Mahmudova S. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilari ijtimoiy kompetentligini oshirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati	130
Муродова Д. Бўлажак мусиқа таълими ўқитувчиларининг бадиий-эстетик компетентлигини ривожлантириш мазмуни.....	133
Насимов С. Бошланғич синф ўқувчиларини мактабга адаптациясининг ижтимоий-психологик шароитларини эмпирик тадқиқ этиш.....	136
Носиров Н. Муҳандислик фаолиятида физик масалаларини ечиш уйғунлигини таъминлаш модели	139
Panjiev M. Texnikumda informatika fanini o'qitish jarayonida bilish faolligini rivojlantirishda talabalarga yo'naltirilgan yondashuv	142
Pulatov J. Harakatlar strategiyasidan taraqqiyot strategiyasi sari (qiyosiy tahlil)	145
Radjabova I. Ta'limni hamkorlik pedagogikasi asosida tashkil etishning nazariy asoslari.....	148



UDK:37.018.1

Jaxongir PULATOV,

Navoiy viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: pulatovjahongir00@gmail.com

Navoiy davlat pedagogika instituti professori, fal.f.d. Safarova N.O. taqrizi asosida

HARAKATLAR STRATEGIYASIDAN TARAQQIYOT STRATEGIYASI SARI (QIYOSIY TAHLIL)

Annotatsiya

Maqolada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, ularning jamiyat barqaror rivojlanishiga ta'siri, xalqparvar davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, inson qadri-qimmatini va uning qonuniy manfaatlarini ta'minlash, qonun ustuvorligi, inson farovon turmush tarzini yuksaltirish, kuchli ijtimoiy siyosat, inson resurslarini rivojlantirish, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va ma'rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan ishlar jamiyat barqaror taraqqiyoti uchun kafolat ekanligi asoslangan. Xususan, 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasidagi besh ustuvor yo'nalishning amaliyotdagi ijrosi hamda 2022-2026 - yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi maqsadlar mamlakat rivojiga zamin yaratadi va jamiyat taraqqiyotining muvaffaqiyat kaliti sifatida "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" ezgu g'oyasini amalga oshirishga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: barqaror taraqqiyot, forovon hayot, strategiya, jamoatchilik boshqaruvi, elektron hukumat, raqamli iqtisodiyot, inson kapitali.

ОТ СТРАТЕГИИ ДЕЙСТВИЯ К СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ (СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ)

Annotation

The article describes the large-scale reforms underway in the country, their impact on the sustainable development of society, building a people's state, developing civil society, ensuring human dignity and its legitimate interests, the rule of law, improving human well-being, strong social policy, human resource development, economic, political, spiritual and educational work is a guarantee for the sustainable development of society. In particular, the practical implementation of the five priorities of the Action Strategy for 2017-2021 and the goals of the New Uzbekistan Development Strategy for 2022-2026 will lay the foundation for the country's development and as a key to the success of society Action Strategy - Development Suggestions and recommendations for the implementation of the noble idea of Strategy.

Keywords: sustainable development, well-being, strategy, public administration, e-government, digital economy, human capital.

FROM ACTION STRATEGY TO DEVELOPMENT STRATEGY (COMPARATIVE ANALYSIS)

Аннотация

В статье описываются масштабные реформы, проводимые в стране, их влияние на устойчивое развитие общества, построение народного государства, развитие гражданского общества, обеспечение достоинства человека и его законных интересов, верховенства права, повышение благосостояния человека. Бытие, сильная социальная политика, развитие человеческих ресурсов, экономическая, политическая, духовно-просветительская работа – залог устойчивого развития общества. В частности, практическая реализация пяти приоритетов Стратегии действий на 2017-2021 годы и целей Новой Стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы заложит основу развития страны и станет залогом успеха общества. Стратегия - Предложения по развитию и рекомендации по реализации благородной идеи Стратегии.

Ключевые слова: устойчивое развитие, благополучие, стратегия, государственное управление, электронное правительство, цифровая экономика, человеческий капитал.

Kirish. Bugungi kunda jamiyat rivojlanishining butun dunyoda tan olingan "2030-yilgacha bo'lgan barqaror rivojlanish sohasidagi maqsad va vazifalar" butun dunyoda mamlakatlar muvaffaqiyatining asosiy mezonini sifatida qaralmoqda. Bu esa, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish rezolyusiyasida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish, dunyoda qashshoqlikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini ta'minlash, barchaga butun umri davomida ta'lim olish imkoniyatini rag'batlantirish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, xalqlarning forovon turmush darajasini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda aholi turli qatlamlarining ijtimoiy himoyasi, ularning ta'lim olishi, adolatli mehnat sharoitlarini kafoloti, sog'liqni saqlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ga mos ravishda ta'minlanmoqda. Zero, "2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari mamlakatimizda har bir insonning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashni ko'zda tutadigan "hech kimni

e'tibordan chetda qoldirmaslik" tamoyili asosida amalga oshirilmoqda"^[1]. Shu bois, aholining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini ta'minlash orqali ular ongida yangilanayotgan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisi bo'lish, yangi O'zbekistonda yangi dunyoqarash tuyg'usini shakllantirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borish ob'yektiv zaruriyatga aylanmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Har qanday jamiyat taraqqiyotining asosi insondir. Shu munosabat bilan mamlakatimizda "Yangi O'zbekistonning 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi"ning birinchi bo'limi "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlatni barpo etish" deb nomlanganligi yurtimiz barqaror taraqqiyot sari rivojlanayotganligiga ishoradir.

Mamlakatimizda inson taraqqiyoti, inson omili, adolatli ijtimoiy siyosatga oid S.Safayev, A.Saidov, Q.Abdurahmonovlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Xususan, S.Safayev "inson kapitalini rivojlantirishning muhim omillari: uzoq va farovon hayot, munosib turmush darajasi, sifatli

ta'lim va tarbiya"ga asoslanishi jamiyat taraqqiyotining garovi ekanligini, A.Saidov "jamiyatni barqaror rivojlanishida ayollarning rolini oshirish, erkaklar va ayollar tengligini ta'minlash"[2]ga qaratilgan g'oyalarni ilgari surganlar, bu esa mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar inson huquqlari kafolatlanganligining dalilidir. Q.Abdurahmonovning "Inson taraqqiyotga mehnat orqali erishish" [3] ga oid fikrida inson va jamiyat taraqqiy etishida odamlarning mehnatga oid kompetentligiga ega bo'lishi, yangi bilimlar, ko'nikmalar, mahorat hamda iste'dodini namoyon etadigan kasb egalariga bog'liqligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mamlakatimizda barqaror taraqqiyotga oid islohotlarni tizimli amalga oshirish jarayonlari qariyb 30 yil vaqt mobaynida takomillashib kelmoqda. Xususan, islohotlar zahirida inson va uning ehtiyoj va manfaatlarini ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy jihatdan qondirilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu kabi islohotlar so'ngi yillarda o'zining natijadorligi bilan alohida ahamiyat kasb etayotganligi, aholining davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlardan roziligi, ularda shukronalik hissi shakllanganligi va eng muhimi kelajakka ishonch tuyg'usi har qachongidan ko'ra ortganligi mamlakat barqaror taraqqiyotida yangi sahifa ochilganligiga ishoradir.

Bugungi islohotlar natijasida "Yangi O'zbekiston" degan ezgu g'oya aholi o'rtasida, qolaversa butun dunyohamjamiyatida bot-bot takrorlanib kuchli salohiyat, munosib obro'-e'tiborga ega bo'layotgan rivojlangan mamlakatga aylanmoqda. "... Yangi O'zbekistonni barpo etish - bu shunchaki hohish-istak, sub'ektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan ob'ektiv zaruriyatsidir" [4]. Darhaqiqat, so'ngi yillar mobaynida mamlakatimizda xalqchil, adolatli, xech kimni e'tibordan chetda qoldirmaydigan, insonlarning huquqlarini ta'minlaydigan, imkoniyatlarini to'la qonli ravishda amaliyotda ruyobga chiqaradigan davlatning mustahkam poydevori barpo etildi. Ayniqsa, jamiyatda har bir insonni baxtli, saodatli, badavlat, teran bilimli va farovon hayot darajasini kafoloti sifatida o'zining ma'rifatparvar, xalqparvar xususiyati, inson qadriini ustuvor qadriyat darajasiga aylantirgani dunyo jamoatchiligi diqqatini tortmoqda. Bu kabi islohotlar asosiy qomusimizning 14-moddasida "Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi"[5] degan qoida aks etganligi jamiyat barqaror taraqqiyotining huquqiy garovidir.

Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarining amaliyotda ijrosini ta'minlashga Prezidenti-

mizning o'zi doimiy e'tibor qaratilayotganligi natijasida mamlakatning ijtimoiy hayoti tubdan o'zgarayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa, turli aholi qatlamlarining vatanimizda kechayotgan islohotlar natijadorligini o'z hayoti va kundalik turmushida his eta boshlaganligida ko'rishimiz mumkin.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatning har jihatdan siyosiy sog'lom va insonparvar g'oyalar asosida qurilganidan dalolat beradi. Harakatlar Strategiyasi ana shu qadriyatlarni yangi tarixiy sharoitlardan taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarishga da'vat etadi.

Demak, O'zbekistonda yangilanishlar strategiyasining zamon talablariga mos va uzoqni ko'zlagan, aniq maqsadlarga tayangan taraqqiyot davri boshlandi. Zero, kambag'allikni qisqartirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Yaqin 5 yilda kambag'allikni ikki barobarga qisqartirish strategiyasi belgilandi. Shu paytgacha O'zbekistonda davlat tomonidan ehtiyojmand oila va odamlarga ko'rsatib kelingan yordamlarning shakli ham, miqdori ham isloh qilindi. Eng muhimi uning xalqaro inklyuziv tashkilotlar tomonidan tanqid qilib kelingan subsidiar mohiyati ham tubdan o'zgardi. Ijtimoiy yordam ko'rsatish orqali insonni intellektual, malakaviy rivojlantirishni ko'zda tutuvchi dunyohamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan shakl, yani har bir odamning o'z qobiliyati va imkoniyatlarini ruyobga chiqarish tajribasi qo'llanila boshladi. Bunday islohot natijasida avvalgi davrlardagi yondashuv, ya'ni insonga moddiy yordam tarzida beriladigan mablag'larning aholini boqimandalikka o'rgatib quyuvchi amaliyotga barham berildi.

Odamlarga moddiy-moliyaviy ko'mak berish orqali uni amalda oyoqqa turg'izish, ma'naviy intellektual jihatdan kuchaytirish negizida insonni tubdan o'zgartirish, kasbiy yoki ma'rifiy rivojlantirishga erishish, shunday yondashuv orqali real holatni tamomam yaxshilash hayotiy zaruratga aylanmoqda.

Keyingi 5-6 yil davomida jamiyat taraqqiyotini mustahkamlashga zamin yaratgan islohotlar butun borlig'icha inson qadriini yuksaltirishga qaratilgan mamlakatimizda "de fakto" tom ma'nodagi ijtimoiy davlatning katta ishonch bilan barpo etilayotganligini asoslaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan qabul qilingan qonunlar, farmon va qarorlar esa, mohiyat e'tiboriga ko'ra, ijtimoiy davlatning mustahkam huquqiy poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Maqolada "Harakatlar strategiyasi", "Taraqqiyot strategiyasi" va "2030 – yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar" ni o'zaro nisbatli tahlil etilgan. Bu quyidagi jadvalda o'z ifodasini topgan.

Barqaror taraqqiyotning muhim omillari	Harakatlar strategiyasi	Taraqqiyot strategiyasi	2030 – yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar
Munosib turmush darajasi	aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish.	53-maqsad. Aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kucaytirish	1-maqsad. Barcha joylarda aholining kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirish
Aholi salomatligi	sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga qaratilgan dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish,	55-maqsad. Ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida respublika	3-maqsad. Sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagi kishilarning farovonligiga erishish

	aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash	hududlarida tibbiyot klasterlarini tashkil qilish.	
Sifatli ta'lim	uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq, yuqori malakali kadrlar tayyorlash	37-maqсад. Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish	4-maqсад. Umumqamrovli va adolatli sifatli ta'limni ta'minlash hamda barchaga butun umri davomida ta'lim olish imkoniyatini rag'batlantirish
Tenglik, xususan gender tengligi	xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnini kuchaytirish	69-maqсад. Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash	5-maqсад. Gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish

Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiya sari ezgu g'oyasining amaliyotda to'laqonli bajarilishi qanday natijalarga olib keladi:

- kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etiladi va aholi turmush darajasi va hayot sifati oshadi;
- muvaffaqiyatsiz qoloq ishlovchi tashkilotlar yoki ta'lim dargohlari qolmaydi;
- tadbirkorlik faoliyati odamlar orzusidagi ishdan, real hayot tarziga, yalpi ijtimoiy harakatga aylanadi;
- soliq to'lovchilarning umumiy miqdori oshadi, demakki, ish bilan band aholi hissasi keskin ko'payadi;
- davlatning eksport salohiyati keskin ko'tariladi;
- davlat xalqqa to'laqonli xizmat qila boshlaydi;
- har bir ishning, sohaning u bank, fermerlik, tadbirkorlik bo'ladimi ma'rifati to'laqonli kuch bilan ishlay boshlaydi. Bank ma'rifati, fermerlik, tadbirkorlik ma'rifati taomilga kiradi;
- har soha o'zicha emas, balki o'zaro hamjihatlikda ishlay boshlaydi;
- 2022-2026-yillar mobaynida yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmida industrial mahsulotlar va xizmatlar hissasi keskin oshadi;
- odamlarda mas'uliyatlik, hamjihatlik, mehr-oqibatlik fazilatlarini milliy mentalitetning uzviy jihatiga aylanadi;
- bandlikni ta'minlash muammosi umumjamiyat miqyosida hal etiladi;
- uy-joyga ehtiyojmand oilalarning muammolari yechiladi;
- jamiyatda to'g'rilik, halollik, adolatlik, mehnat-sevarlik, vatanparvarlik haqiqiy qadriyatlariga aylanadi;
- vatanparvarlik ma'naviy siyosatning harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi;
- milliy ma'naviy o'zlikka egalik uchun kurash yalpi ijtimoiy harakatga aylanadi. Bu kabi vazifalarni to'laqonli amalga oshirish uchun aholining ijtimoiy, siyosiy intellektini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Buyuk mutafakkir Abu Nasr al-Forobiy "...fikrlash quvvati tasavvur yordamida baxt-saodatga yetishuv uchun qanday ish-harakatlar qilish zarurligini bilib oladi" [6] deb ta'kidlaydi. Ushbu fikr

jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy jarayonlarda intellektual salohiyatning kafolati ekanligining yaqqol dalilidir.

Aytish mumkinki, Prezident Sh.Mirziyoev tomonidan ishlab chiqilgan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta usutvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi", "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" mamlakatda qisqa davr mobaynida amalga oshirilgan tarixiy tajribalarni umumlashtirib, hozirgi masalalarni hisobga olib, keyingi besh va undan keyingi uzoq yillarga mo'ljallangan tarixiy taraqqiyotning yangi davrini ochib berdi. Bu butun mohiyati bilan O'zbekistonning eng yangi tarixida butunlay yangi sahifa ochdi.

Xulosa va takliflar. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichi yurtimizda istiqomat qiluvchi barcha insonlar uchun millati, tili va dinidan qat'iy nazar, munosib hayot sharoiti yaratib berilmoqda. Ushbu jarayon bevosita barqaror rivojlanish konsepsiyasi kontekstida inson turmush darajasi va erkinliklarini taminlab berish kabi tamoiil doirasida amalga oshirilmoqda.

Har bir davrning o'z taraqqiyot omillari, ehtiyojlari, talablari va hayotiy tamoyillari bo'ladi. Har bir zamonning o'z zayli, qarashlari, munosabatlari, tafakkur tarzi bo'ladi. Ana shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, so'ngi yillarda jamiyat barqaror rivojlanishi, inson huquq hamda imkoniyatlari ta'minlanayotganligi O'zbekistonning tarixiy taraqqiyot va rivojlanishida butunlay yangi bosqichni boshlab berdi. Bu bevosita zamon bilan hamnafas, hozirgi sivilizatsiya talablariga javob beradigan, bugungi kun milliy va dunyoviy ehtiyojlarini nazarda tutgan, jahon davlatchiligi ilg'or tajribalari bilan milliy xususiyatlarimiz, qadriyatlarimiz, davlatchilik usul va uslublarimiz bilan uyg'unlashib ketgan, sintezlashgan kuchli va qudratli siyosiy tafakkur bilan bog'liq. Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, har qanday demokratik davlatda inson huquq va erkinliklarining himoyasi oliy qadriyat sifatida belgilangan. Jamiyat taraqqiyoti esa, insonning huquqlari, burch va mas'uliyatini namoyon qilishida o'z ifodasini topadi. Befarqlik esa, mamlakatni tanazzulga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. «Янги Ўзбекистон стратегияси» -Тошкент: Ўзбекистон, 2021. -69 б.
2. Saidov.A.X. "O'zbekistonda ayollar huquqlari". Toshkent: "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi", 2010.- 6 b.
3. Abdurahmonov Q. "Mehnat iqtisodiyoti va sosiologiyasi". Toshkent: "Fan va texnologiy", 2012,-9 b.
4. Мирзиёев Ш.М. «Янги Ўзбекистон стратегияси» -Тошкент: Ўзбекистон, 2021. -3 б.
5. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: "Ўзбекистон", 2019. – Б. 7.
6. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б. 239.